

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU.
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
IJTIMOIIY FANLAR

НАУЧНЫЙ
ВЕСТИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

tizimining falsafiy jihatlari.....	106
------------------------------------	-----

SIYOSAT

F.F.Dadaboyev	
Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda davlat siyosatining roli	110
J.S.Sotvoldiyev	
Sharq va G'arb siyosiy tamaddunida tinchlik va xavfsizlik masalasi talqini	114
T.A.Azizov	
Xorijiy tajribalar asosida favqulodda ekologik vaziyatlarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish imkoniyatlari.....	119
A.To'xtasinov	
Inson manfaatlarini e'tirof etuvchi konstitutsiya	122
F.R.Ravshanov, X.Z.Muminovich	
Tarixiy geosiyosatda Markaziy Osiyo	128

TARIX

O.V.Mahmudov	
"O'rta asr arabshunoslik tarjima markazlari": tushuncha va muomalaga kiritishning ilmiy asoslari	136
Ф.Т.Баитова	
Политическая нестабильность как фактор возникновения народного восстания в Кокандском ханстве (1873-1876 гг.).....	147
X.X.Mamajonov	
Turkiya Respublikasidagi Temurshunoslik taraqqiyotida xorijdan ko'chib kelgan ziyolilarning o'rni	153
I.R.Tishabayeva	
Sovet davrida O'zbekistonda maktabgacha ta'lim muassasalari qurilishi va infratuzilmasining shakllanishi (1970–1990-yillar).....	157
X.L.Xolmirzayev	
"Jome ul-havodis" asari qo'lyozmalari va ularning tavsifi	162
O.B.Nizomiddinov	
Sovet davrida (1920–1930-yillar) Farg'ona vodiysida muzey va teatrlar faoliyati: madaniy o'zgarishlar tahlili	167
Sh.B.Muhiddinova	
Buxoro amirligidagi ijtimoiy hayot masalalari ingliz Aleksandr Byorns talqinida	171
M.A.Umarov	
Afg'oniston va Eronning sovet davlati bilan iqtisodiy sohadagi munosabatlarining qisqacha mazmun va mohiyati	176
S.G'.Nigmatova	
O'zbekistonda nodavlat ta'lim muassasalarining shakllanishi xususiy o'quv markazlar faoliyati misolida	180
J.Axmedov	
Some considerations on the intangible cultural heritage of Karakalpakstan	184
X.P.Jurayev	
Xiva xonligi qishloq xo'jaligida donli ekinlar va ularga doir ayrim mulohazalar	189
H.S.Yusupov	
Xorazm Xalq Sovet Respublikasida "Madrasalar islohoti" dasturining qabul qilinishi va uning oqibatlarini	193
M.Q.Tolibboyev	
Xalq dostonlarida otlarning harbiy ishidagi o'rni (tarixiy-elshunoslik tahlili).....	197
X.X.Mamajonov	
Mustafo Kamol Otaturk kundaligida Amir Temur siymosi	201



UO'K: 930.85 (9+81)

**“O’RTA ASR ARABSHUNOSLIK TARJIMA MARKAZLARI”:
TUSHUNCHA VA MUOMALAGA KIRITISHNING ILMIY ASOSLARI****«СРЕДНЕВЕКОВЫЕ ПЕРЕВОДЧЕСКИЕ ЦЕНТРЫ АРАБИСТИКИ»:
ПОНЯТИЕ И НАУЧНЫЕ ОСНОВАНИЯ ВВЕДЕНИЯ В ОБОРОТ****“MEDIEVAL TRANSLATION CENTERS OF ARABIC STUDIES”:
CONCEPT AND SCHOLARLY FOUNDATIONS FOR INTRODUCING INTO ACADEMIC
DISCOURSE****Mahmudov Otabek Valijonovich** Farg'ona davlat universiteti, Ilmiy kengashlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nashriyot bo'limi
boshlig'i, PhD., dotsent.**Annotatsiya**

Maqolada XI asr ikkinchi yarmi – XIII asrda Yevropaning tarjima faoliyati yo'lga qo'yilgan o'n uchta shahrini yagona tizim sifatida «O'rta asr arabshunoslik tarjima markazlari» sifatida nomlash konsepsiyasi nazariy jihatdan asoslab berilgan. Shunga asosan muallif tomonidan, fanda arabshunoslikning shakllangan davri sifatida ko'rsatiluvchi XVI asrni qayta belgilash, bunda XI asr ikkinchi yarmi – XIII asrni sohaning ilk bosqichi sifatida baholash lozimligi ta'kidlanadi.

Аннотация

В статье научно-теоретически обоснована концепция наименования тринадцати европейских городов как единой системы «центров перевода средневековой арабистики» во второй половине XI – XIII веках. На основе этого автор приходит к выводу о необходимости переосмысления XVI века, традиционно рассматриваемого как период становления арабоведения, и предлагает рассматривать вторую половину XI – XIII века как начальную стадию развития данной науки.

Abstract

The article theoretically justifies the concept of naming thirteen European cities as a unified system of “Medieval Translation centers of Arabic studies” during the second half of the 11th to the 13th centuries. Based on this, the author concludes that the 16th century, traditionally considered the period of the formation of Arab studies, should be redefined, proposing that the second half of the 11th to the 13th centuries be regarded as the early stage of the development of this science.

Kalit so'zlar: O'rta asrlar, Yevropa, Ispaniya, Italiya, janubiy Fransiya, tarjima, tarjimonlar, tarjima markazlari, arab, lotin, ibroniy, lotin tilli manbalar, tahlil, arabshunoslik, konsepsiya, bosqichlar.

Ключевые слова: средневековые, Европа, Испания, Италия, Южная Франция, перевод, переводчики, центры перевода, арабские, латинские, ивритские, латинские источники, анализ, арабистика, концепция, этапы.

Key words: Middle Ages, Europe, Spain, Italy, Southern France, translation, translators, translation centers, Arabic, Latin, Hebrew, Latin sources, analysis, Arab studies, concept, stages.

KIRISH

Biz, mazkur jurnalning 2022-yil 5-sonida e'lon qilgan maqolamizda XII–XV asrlarda Yevropaning tarjima faoliyati yo'lga qo'yilgan shaharlarini yagona tizim sifatida «O'rta asr Yevropa tarjima markazlari» sifatida nomlash konsepsiyasini ilmiy jihatdan asoslab berib [47], tarjima tarixiga oid arab va lotin tilli manbalar qiyosiy tahlili asosida [48] o'rta asr Yevropa tarjima markazlarining faoliyatini 3 bosqichga ajratish, ulardan XII–XIII asrlarni o'z ichiga olgan birinchi davrni – Yevropada arabshunoslik sohasining yuzaga kelishidagi ilk bosqich sifatida baholash lozim [47: 41], degan xulosani ilgari surgan edik. Chunonchi, ayni davrda turli fan sohalariga doir arab tilidagi ko'p sonli asarlar lotin tiliga tarjima qilinib, mintaqa olimlari tomonidan tadqiq etilgan edi.

Ta'kidlash lozimki, «O'rta asr Yevropa tarjima markazlari» tizimiga kirgan shaharlarni faoliyat yo'nalishiga qarab uch guruhda: yunonshunoslik, ibroniyshunoslik va arabshunoslik markazlari sifatida toifalash lozim. Sohadagi tadqiqotimizning navbatdagi natijasi sifatida mazkur maqolada «O'rta asr Yevropa tarjima markazlari» tizimining tarkibiy qismi sifatida «O'rta asr arabshunoslik

TARIX

tarjima markazlari» tushunchasining mohiyati va uni ilmiy muomalaga kiritishni asoslashga harakat qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Hozirgi kunda fan tarixi, shuningdek filologik va tarixiy tadqiqotlarda arabshunoslik sohasini XVI asrda shakllangan degan qarash hukmronlik qiladi. Ayni holat respublika, mintaq va xorijiy tadqiqotlarga birdek xosdir. Yurtimizda mazkur atamaga nisbatan «arab xalqlarining tili, tarixi, iqtisodiyoti va madaniyatini tadqiq etuvchi fanlar majmui bo'lib, asli arab bo'lmagan, lekin arab tilida ijod qilgan olimlarning madaniy merosini o'rganuvchi, G'arbiy Yevropada XVI asr oxirida vujudga kelgan soha» [59: 590-592] deb berilgan ta'rif asos sifatida qabul qilingan. Ayni ta'rif rus sharqshunosligi, shu jumladan arabshunosligida [67] ham qo'llaniladi. Zamonaviy G'arb sharqshunosligida esa arabshunoslikning vujudga kelishi XVI boshlari bilan belgilanib, u asosan arab xalqlari tarixini va arab tilini o'rganuvchi tor fan tarmog'i [43: 11] sifatida baholanadi. Mashhur arabshunoslar Iyann Fyuk (1894 – 1974) [44] hamda Doroteya Metlitski (1914 – 2001) [53] asarlarida arabshunoslikni shakllanishining boshlang'ich nuqtasi sifatida XII asrga ishora qilinsada, ularda Edvard Said ta'biri bilan aytganda, Sharqni «kamsitish ruhi» [55: 10] mavjud. Bundan tashqari, bu kabi asarlarda ham arabshunoslikning shakllanish bosqichlari aniq belgilab berilmagan.

Ilmiy tadqiqotlarda arabshunoslikning yuzaga kelishini XVI asr bilan belgilanishiga mashhur ispan leksikografi Pedro de Alkala (tug'. 1455)ning «Arte para ligeramente saber lengua araviga» («Arab tilini boshlang'ich o'rganish san'ati») nomli asari va uning tarkibiy qismi hisoblangan «Vocabulista árabe en letra castellana» [23] («Ispan tilidagi arabcha lug'at») hamda fransuz sharqshunosi Giyom Postel (1510 – 1581)ning «Linguarum duodecim characteribus differentium alphabetum» («O'n ikki turli tilning alifbo belgilari») nomli asari tarkibidagi «Grammatica Arabica» [33] («Arab tili grammatikasi») tadqiqoti asos qilib olingan. Bugungi kunda asl nusxasi Ispaniya milliy kutubxonasida R 2153 xos raqami bilan saqlanayotgan de Alkala asari aslida arab tilining granada dialektini o'rganishga bag'ishlangan bo'lsa, G.Postel risolasida arab tili grammatikasi to'g'risida boshlang'ich ma'lumotlar berilgan, xolos. Bizningcha, arabshunoslikning yuzaga kelishini XVI asr bilan belgilovchi fikrlarga avvalo unga juda tor doirada, faqat arab tili va tarixini o'rganuvchi tilshunoslik sohasi sifatida qaralishi sabab bo'lgan.

Ismi tilga olingan nemis arabshunosi I.Fyukning «Die arabischen Studien in Europa vom 12 bis in den Anfang des 19 Jahrhunderts» («XII asrdan XIX asr boshlarigacha Yevropada arabshunoslik») nomli risolasi va uning to'ldirilgan variant hisoblanmish «Die arabischen Studien in Europa bis in den Anfang des 20 Jahrhunderts» («XX asr boshlarigacha Yevropada arabshunoslik») nomli asarida Yevropa arabshunosligidagi ilk voqelik sifatida 1143-yilda «Qur'oni karim»ning lotin tiliga tarjima qilinishi ekanligini ta'kidlasada, mintaqada arabshunoslikning shakllanishi Ispan gumanizmi va arabcha matnlarni nashriyot uylarida chop etish yo'lga qo'yilgan davrdan boshlanganligini [44: IX] qayd etgan. Bu bilan olim sohaning dastlabki shakllanish bosqichi sifatida XV asr oxiri – XVI asr ikkinchi yarmiga ishora qilgan. Bundan tashqari, asarda arabshunoslikning ilk bosqichi bo'lgan XI asr ikkinchi yarmi – XIII asrdagi tarjimachilik jarayoniga qisqa satrlarda e'tibor qaratilib, bu davrdagi ishlarga mazmunni ifodalashga qaratilgan tarjimalar [44: 3-9] sifatida baho berilgan.

I.Fyukdan farqli ravishda, Yel universiteti dotsenti, arabshunos olimi D.Metlitski o'zining mashhur «The Matter of Araby in Medieval England» («O'rta asr Angliyasida arablar masalasi») nomli asarida XI asr ikkinchi yarmi – XIII asrdagi tarjima ishlariga alohida e'tibor qaratib, kelib chiqishi ingliz bo'lgan tarjimonlar Batlik Adelard (tax. 1070–1145), Kettonlik Robert (XII asr) va Maykl Skot (1175–1234) faoliyatini [53: 3-10, 16, 26, 48] muayyan darajada yoritgan. Shunga qaramay, asarda arabshunoslikning shakllanish bosqichlari nazariy jihatdan tahlil qilinmaydi. Bunday holat sharqshunoslikning klassik davri sifatida e'tirof etiluvchi XIX – XX asr birinchi yarmidagi tadqiqotlariga ham xos bo'lib, ularda turli ilmiy muammolar tadqiq etilib, yangi asarlar muomalaga kiritilgan bo'lsada, sohaning shakllanish bosqichlariga e'tibor qaratilmagan. Boshqacha aytganda, mashhur arabshunoslar o'z sohalari tarixini davrlashtirishga deyarli harakat qilishmagan. «Orientalism» kabi keyin davr fundamental ishlarida G'arb sharqshunosligi, shu jumladan arabshunosligidagi tadqiqotchilik maqsadi Sharq rakursidan turib tanqidiy tahlil qilingan bo'lsada [55: 31-112, 113-200, 201-328], ularda ham sohaning vujudga kelishi tadrijiy ravishda ochib berilmagan.

Agarda, arabshunoslikka arab xalqlarining tili, tarixi, iqtisodiyoti va madaniyatini tadqiq etuvchi, shuning barobarida arab tilida ijod qilgan olimlarning ilmiy merosini o'rganuvchi sohasi

sifatida, keng qamrovda baho berilsa, sohaning shakllanish bosqichi umum qabul qilingan XVI yoinki XIV – XV asrlardan avval, X – XI asrlardayoq boshlanganligidan dalolat bermoqda. Boshqacha qilib aytganda, arabshunoslikning ilk belgilari arab tilidagi asarlarni tarjima qilish va tadqiq etish ko'rinishida Yevropada X asr ikkinchi yarmidan shakllana boshlagani, XI asr ikkinchi yarmidan esa mintaqada arabshunoslik tarjima markazlarining tashkil topish jarayoni boshlanganidan dalolat bermoqda.

O'rta asrlarda Yevropa mamlakatlarida olib borilgan tarjimachilik ishlari tarixini o'rganish borasida mintaqa olimlari salmoqli ishlarni e'lon qilishgan. Quyida, tadqiqot natijalari o'z davri uchun mutlaq yangilik darajasida bo'lgan ayrim muhim ilmiy ishlar xususida to'xtalamiz.

Mashhur fransuz olimasi, Britaniya akademiyasi hamda Xalqaro fan tarixi akademiyasi a'zosi Mariya-Tereza de-Alverniy (1903–1991) ayni sohada muhim izlanishlar olib borgan. Olimaning «Translations and translators» («Tarjimalar va tarjimonlar») [38] nomli yirik maqolasi tarjima tarixiga oid asosiy tadqiqotlardan biri sanaladi. Unda o'rta asrlarda Ispaniya va Italiyaning markaziy shaharlarida ijod qilgan tarjimonlar hamda ular tomonidan yaratilgan tarjimalarga taalluqli ma'lumotlar aks etgan.

Tarjima tarixiga oid masalalarni o'rganishda Londondagi Varburg instituti professori Charlz Bernettning xizmatlari alohida o'rin tutadi. Uning «A group of Arabic-Latin Translators Working in Northern Spain in the Mid-12th Century» («Shimoliy Ispaniyadagi arab – lotin tarjimonlar guruhining XII asr o'rtalaridagi faoliyati») [39] hamda «The Translating Activity in Medieval Spain» («O'rta asrlarda Ispaniyadagi tarjimachilik faoliyati») [41] nomli maqolalarida mavzu yuzasidan chuqur mulohazalar yuritiladi. Shuningdek, olimning «The Coherence of the Arabic-Latin Translation Program in Toledo in the Twelfth Century» («XII asrda Toledodagi arab – lotin tarjima dasturining aniqligi») [40] deb nomlangan maqolasida o'sha davrda yaratilgan tarjimalar xususida tanqidiy fikr yuritilgan bo'lib, unda tarjimonlar yo'l qo'ygan kamchiliklar bayon etiladi. Bundan tashqari, muallif o'ziga qadar e'lon qilingan sohaga oid ko'plab tadqiqotlarni nazariy jihatdan tahlil qilish asnosida ulardagi turli xatoliklarni aniqlab, tuzatishlar kiritgan.

XII–XIII asrlarda Italiya hududidagi dastlabki tarjima markazlaridan biri hisoblagan Salerno tibbiyot maktabining tarixini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ichida o'rta asr tibbiyot tarixi bilimdoni, ingliz shifokori Brayn Loun (1905–2001)ning «The Salernitan Questions» («Salerno savollari») [45] nomli asari muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda muallif maktabning tashkil topishi va faoliyatini o'rta asr lotin tilli manbalar asosida yoritib berishga harakat qilgan.

Italiyaning Palermo va Neapol shaharlarida tarjimachilikning yo'lga qo'yish va rivojlantirish ishlariga boshchilik qilgan imperator Fridrix II (1220–1250)ning arab tilidagi asarlarni lotin tiliga tarjima qiluvchi olimlar jamoasini tashkil qilish va ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlariga oid masalalar Pyer Tuber va Avgustino Paravachini Baglianining hammualliflikdagi «Federico II e le scienze» («Fridrix II va ilmlar») [57] nomli asarida muayyan darajada tahlil etilgan.

XIII asrdagi tarjimachilik ishlarining muhim markazlaridan yana biri janubiy Fransiya'dagi Monpelye tibbiyot maktabi hamda uning asosida tashkil etilgan universitet tarixini o'rganish borasida fransuz harbiy shifokori va tarixchisi Lui Dyule (1917–2003)ning «La médecine à Montpellier» («Monpelyedagi tibbiyot») [42] nomli 6 jildidan iborat asari muhim o'ringa ega. Asarning birinchi jildi bevosita o'rta asrlar tarixiga bag'ishlagan bo'lib, unda shahardagi tibbiyot maktabi va universitetida yo'lga qo'yilgan tarjima jarayoni muallif e'tiboridan chetda qolmagan. Asar o'z davrida Fransiya Fanlar akademiyasi tomonidan o'rta asrlar tibbiyot tarixiga oid eng ishonchli ilmiy adabiyot, deb e'tirof etilgan. Shunga qaramay, unda ayrim munozara talab jihatlar mavjud. Jumladan, muallif Monpelye tibbiyot maktabining tashkil topgan sanasini biror bir manbaga asoslanmagan holda 1137-yil [42: 24] deb ko'rsatadi. Natijada, ushbu maktabning tashkil topishiga oid fanda mavjud bo'lgan mulohazalar yana bittaga ortib, keyingi davr tadqiqotchilarining bu boradagi chalkashliklariga sabab bo'lgan. Biz, mazkur maktab tarixiga oid lotin tilli manbalar tahlili va ayni mavzu yuzasidan olib borgan tadqiqotimiz natijalariga asoslanib, uning rasman tashkil topgan sanasi 1220-yil, degan xulosa keldik.

O'rta asrlarda Yevropada olib borilgan tarjima faoliyatini davrlashtirishga dastlabki urinishni Leon universiteti (Ispaniya) professori Hulio Sezar Santoyoning 2004-yilda chop qilingan «La edad media» («O'rta asrlar») [56] nomli maqolasida uchratish mumkin. Biroq, muallif xulosalari mavzuga oid manbalarga emas, balki turli yillarda e'lon qilingan tadqiqotlarga asoslanganligi sababli o'ta munozara talabdir. Bu borada, muallifning o'rta asrlar tarjima tarixidagi ikki muhim markaz – «Bayt al-hikma» va Toledo maktabining muassasa sifatida mavjud bo'lganligiga oid farazlari soha

TARIX

mutaxassislarining e'tirozlariga sabab bo'ldi. Biz, ayni masala yuzasidan o'z pozitsiyamizni «Toledo maktabi – afsona yoki haqiqat: H.S.Santoyo va A.Kalashnikovga raddiyalar» [62] nomli maqolamizda batafsilroq asoslab berishga harakat qilganmiz.

O'rta asr Yevropa tarjima markazlari faoliyatini umumiy kontekstda yoritishga urinish esa Eliza Borsari muharrirligi ostidagi «Translation in Europe during the Middle Ages» («O'rta asrlarda Yevropada tarjima jarayoni») [58] nomli monografik tadqiqotda amalga oshirildi. Yevropalik soha mutaxassislari hammuallifligidagi ushbu ish mavzuga oid eng so'nggi tadqiqot natijalarini o'zida mujassam etsa-da, unda o'rta asrlarda G'arb mamlakatlarida yo'lga qo'yilgan tarjima faoliyatining xronologiyasi XIV–XV asrlar bilan chegaralanadi. Buning natijasida, asarda o'rta asr Yevropa tarjima tarixining birinchi bosqichi hisoblangan XI asr ikkinchi yarmi – XIII asrdagi tarjima jarayonlari yoritilmay qolgan.

Qayd etish joizki, Yevropa tarjimachiligining XI asr ikkinchi yarmi – XIII asrdagi tarixi mintaqa olimlari tomonidan muayyan darajada tadqiq etilgan bo'lib, ularning aksar qismi fundamental tadqiqot darajasida. Shunga qaramasdan, ayni davrda arab tilidagi asarlarni lotin, ibroniy yoki boshqa mahalliy tillarga o'girish ishi yo'lga qo'yilgan Pireney yarim oroli, Italiya hamda janubiy Fransiya shaharlaridagi tarjimachilik ishlari umumiy bir kontekstda o'rganilmay qolmoqda. Balki, shuning uchun ham tarjima tarixidagi ushbu bosqichni qanday nomlash borasida fan tarixchilari tomonidan hanuz biror bir nazariya yohud konsepsiya ilgari surilmagan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA**I. «O'rta asr arabshunoslik tarjima markazlari» tushunchasi va uni muomalaga kiritishning ilmiy asoslari.**

Mavzu yuzasidan olib borgan tadqiqot natijasida, XII–XIII asrlarda Yevropada tarjimachilik ishlari asosan 13 ta shahar – Barselona, Mursiya, Pamplona, Saragosa, Sevilya, Segoviya, Toledo hamda Neapol, Paduya, Palermo, Salerno, shuningdek Marsel va Monpelyeda olib borilganligi aniqlandi. Mazkur shaharlarni geografik jihatdan uch guruhga ajratib, ularni Pireney yarim oroli, Sitsiliya va Italiya, Provans shaharlari, deb atash to'g'ri bo'ladi. Zamonaviy davr nuqtai-nazaridan ularni Ispaniya, Italiya va janubiy Fransiya shaharlari sifatida tasniflash lozim.

Ularning **tuzilishi, faoliyat ko'lam** va **mohiyatiga ko'ra yana 2 toifaga** ajratish zarur:

birinchi toifaga Ispaniyaning Toledo, Sevilya va Mursiya, Italiyaning Salerno va Neapol, Fransiyaning Monpelye kabi shaharlari kirib, ularda tarjima jarayonlari ilmiy yoki ta'lim muassasalarida olib borilgan. Boshqacha aytganda, mazkur shaharlarda **tom ma'nodagi tarjima muassasalari** faoliyat yuritgan;

ikkinchi toifaga Ispaniyaning Barselona, Pamplona, Saragosa va Segoviya, Italiyaning Paduya va Palermo, Fransiyaning Marsel shaharlari kiradi. Ularda tarjima jarayonlari **tarjimonlarning mustaqil faoliyati ko'rinishida** kechgan bo'lib, tarjimonlar asosan biror bir davlat rahbari yoki diniy arbob rahnamoligida saroyda yohud shaharlarning markaziy cherkovida ijod qilishgan.

Uch hududdagi tarjimachilik ishlarining qiyosiy tahlili natijasi shuki, Ispaniya tarjima markazlarida asarlar asosan arab tilidan lotin tiliga o'girilgan, shuningdek, bu hududda asarlarni mahalliy tilga tarjima qilish XIII asrdayoq boshlangan. Italiya va Fransiya esa bu jarayon XIV–XV asrlarga kelib yuz beradi. Italiya tarjimonlari qadimgi yunon olimlarining asarlarini lotin tiliga o'girishda, Ispaniya va janubiy Fransiya tarjima markazlarida bo'lgani kabi ularning arab tilidagi tarjimalariga emas, balki to'g'ridan-to'g'ri asl yunoncha qo'lyozmalariga asoslanishgan. Janubiy Fransiya tarjima markazlarida esa asarlar asosan ibroniy tiliga o'girilgan.

Sanab o'tilgan shaharlarda turli sohalarga oid arab tilidagi 200 ga yaqin asarlar o'sha davrning ilmiy tili hisoblangan lotin tiliga o'girilgan. Ko'rib o'tilayotgan davrda Ispaniyadagi tarjima faoliyatining bosh markazi Toledo maktabi hisoblangan bo'lsa, Sitsiliyada bu vazifani Palermo, Italiyada Salerno tibbiyot maktabi, janubiy Fransiya esa Monpelye maktabi bajargan.

Biz, mazkur tasnif asosida Ispaniya, Italiya va janubiy Fransiya hududidagi tarjima markazlarning faoliyatini mavjud manbalar asosida o'zimizning avvalroq e'lon qilingan ishlarimizda [49-51, 63-66] batafsil tavsiflashga harakat qilganmiz.

Sohadagi tadqiqotlarimiz natijalari arabshunoslikning ilk belgilari yuqorida sanab o'tilgan shaharlarda arab tilidagi asarlarni tarjima qilish va tadqiq etish ko'rinishida X asr ikkinchi yarmidan shakllana boshlagani, XI asr ikkinchi yarmidan esa mintaqada arabshunoslik tarjima markazlarining tashkil topish jarayoni boshlanganidan dalolat bermoqda.

Fikrimizni yanada aniqroq kontekstda ifodalash uchun arabshunoslikka XV – XVI asrlarda yuzaga kelgan soha sifatida berilgan ta'riflarda asos sifatida ko'rsatilgan faktorlarning XI asr ikkinchi yarmi – XIII asrdagi in'ikosini ko'rsatib berishga harakat qilamiz:

- Leksikografik ishlar yo'lga qo'yilib, lug'atlar yaratila boshlanganligi:

Maqola avvalida qayt etilganidek, bu bo'rada «Arte para ligeramente saber lengua araviga» («Arab tilini boshlang'ich o'rganish san'ati»), «Vocabulista arábigo en letra castellana» («Ispan tilidagi arabcha lug'at») va «Grammatica Arabica» («Arab tili grammatikasi») nomli asarlar asos sifatida keltiriladi.

Aslida, arab – lotin lug'ati ilk bor XII asrda Ispaniya yaratilgan bo'lib, «Glossarium Latino-Arabicum» [13] nomli mazkur lug'at bugungi kunda yagona nusxada Leyden kutubxonasida Or. 231 raqami bilan saqlanmoqda. Muallifi noma'lum bo'lgan lug'at matnining tahlili uni arab tilini mukammal bilgan ispaniyalik xristian tomonidan tuzilganligini ko'rsatmoqda. Leksikografik jihatdan turli nuqsonlarda holi bo'lmasada, arab va lotincha so'zlar qiyosiy tahlil qilingan, 294 sahifadan iborat ayni qo'lyozma Yevropa arabshunosligidagi dastlabki lug'at edi.

- Arab tilidagi asarlarni ilmiy izohli tarjima qilish yo'lga qo'yilganligi:

Maqolaning avvalgi qismida ta'kidlanganidek, XI asr ikkinchi yarmi – XIII asrda 200 dan ortiq arab tilidagi asarlar lotin tiliga tarjima qilingan. Tarjimashunoslik nuqtai nazarida ularning barchasini ham yuqori saviyada deb bo'lmasada, tahlillar tarjima jarayonida erkin, so'zma-so'z, vositachi tildan tarjima qilish uslublaridan foydalanilganini ko'rsatmoqda. Manbalarda, Toledo maktabi egasi Raymondo de Salvatani bu yerda yaratilgan bir qancha tarjimalarni tekshirib berish uchun 1140–1142-yillar oralig'ida Dalmatlik Herman (1100–1160)ga jo'natganligi to'g'risida ma'lumotlar saqlangan. Jumladan, 1140-yilda *arxiyepiskop asarlarni arab tilidan to'g'ridan to'g'ri lotinchaga o'giruvchi Hermanga turli jadvallardan iborat arabcha asar matnini uning 1126-yilda yaratilgan lotincha tarjimasini bilan birga yuborganligi* qayd etiladi. Ta'kidlanishicha, *arxiyepiskop tarjimondan asarni lotincha tarjimasini uni arabcha nusxasi bilan solishtirib, tekshirib berishni* [35: 47-48] so'ragan. Bundan ko'rinadiki, arabcha asarlar nafaqat lotinchaga o'girilgan, balki tarjima matni tanqidiy qayta tahrir ham etilgan.

Avvalroq ismi tilga olingan Kastiliya va Leon qiroli Alfonso X davrida esa yaratilgan tarjimalarni tekshiruvdan o'tkazuvchi «emendador» lavozimi joriy qilinadi. Eski kastil tilidan tarjima qilinganida bu so'z «tuzatuvchi» degan ma'noni anglatadi. Zamonaviy davr nuqtai nazaridan u muharrirlikka to'g'ri keladi. Bundan tashqari, qiroli buyrug'i bilan ungacha ishlatib kelingan lotincha «verbum pro verbo» (so'zma-so'z) tarjima uslubi bilan bir qatorda kastilcha «llanos de entender» (oson tushunish) uslubini qo'llashga o'tilgan.

Ayni davrda ijod qilgan mashhur ingliz faylasufi Rojer Bekon (1214–1292) o'zining «Opus Majus» («Katta asar») nomli kitobida arabcha asarlarini lotin tiliga tarjima qilinishini ham maxsus yoritgan. R.Bekon mazkur jarayonda ishtirok etgan tarjimonlar faoliyatiga nazar tashlab, ulardan Ifriqiyalik Konstantin, Batlik Adelard, Kremonalik Jerard, Maykl Skot, Sareshellik Alfred, Germanlik Herman to'g'risida ma'lumotlar [22: 5-6, 10, 13, 73, 82, 85, 101] beradi. Tarjimashunoslik nuqtai-nazaridan «Opus Majus»ni XI asr ikkinchi yarmi – XIII asr oxirida yaratilgan tarjimalarning dastlabki tanqidiy tahlili keltirilgan asar, deb baholash to'g'ri bo'ladi. Chunonchi, muallif asarning lingvistikaga bag'ishlangan «Linguarum cognitio» nomli uchinchi qismda arab tilidagi asarlarni lotin tiliga o'girish jarayonida tarjimonlar tomonidan qo'llanilgan tarjima uslublari va ularning kamchiliklari to'g'risida o'z mulohazalarini bildirib o'tgan.

Mazkur jihatlar, XI asr ikkinchi yarmi – XIII asrda tarjimachilik ish uslubi turg'un holatda turmay, vaqt o'tishi bilan takomillashib borganligini, yaratilgan tarjimalar esa ayni davrning o'zida ham tanqidiy tahlil etilganligini ko'rsatmoqda. Muhim jihati, musulmon Sharqi olimlari qalamiga mansub arab tilidagi asarlarining ayni davrda yaratilgan lotincha tarjimalari, ularning XVI yoki haqiqiy ilmiy-izohli tarjimalari yaratilgan XIX asrdagi nusxalaridan ko'ra, Yevropa ilm-fan taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etdi.

- Arab tilli xalqlar tarixi va madaniyatini o'rganishga qiziqishning kuchayganligi:

Aslida, bu jarayon, ikki, ya'ni arab va lotin tilli sivilizatsiya vakillarining dastlabki to'qnashuvi yuz bergan VII – VIII asrlardayoq shakllana boshlangan. Lekin, bu qiziqish arab tilli xalqlar tarixi va madaniyatiga oid asarlar yaratish ko'rinishida XII – XIII asrlardan jiddiy ko'rinish oldi. Jumladan, Raymond de Agilers (vaf. tax. 1100)ning «Historia Francorum qui ceperunt Jerusalem» («Quddusni zabt etgan franklar tarixi») nomli asari hamda yuqorida ismlari tilga olingan Pyer de Montboissiyerning «Summa totius haeresis Saracenorum» [32: 115-293] («Barcha musulmon

TARIX

bid'atlarining yig'indisi») hamda Rodrigo Ximenes de Radaning «Historia arabum» [35] («Arablar tarixi») nomli risolalarida arab tili xalqlar madaniyati va islom diniga oid ma'lumotlar ilk bor lotin tilida bayon etildi. Biroq, ayni davrdagi qiziqish asosan o'rta asrlarning dinlararo kurashlar fonida yuz berganligi bois, islom tarixi va madaniyatiga oid voqea va ma'lumotlar bir yoqlama, nasroniy dini nuqtai nazaridan yoritilgan. Misol uchun, «Summa totius haeresis Saracenorum» aslida islomiy ta'limotlarni chuqurroq o'rganib, ulardagi xatoliklarni aniqlash va shu asosida bu ta'limotlarni inkor etish maqsadida yozilgan bo'lsada, u islomni nasroniylik rakursidan turib tadqiq etishga urinib ko'rilgan, musulmon madaniyati va fani tarixiga bag'ishlangan Yevropadagi dastlabki asarlardan biri ekanligi bilan muhim ahamiyatga ega.

- Arab tilini o'qitishning yo'lga qo'yilganligi:

Sohadagi tadqiqotlarda XVI asrdan Yevropa universitetlarida arab tilini maxsus fan sifatida o'qitish keng yo'lga qo'yilganligi qayd etiladi. Albatta, bu tarixiy haqiqat. Lekin ayni jarayon arab tilidagi asarlar tarjima qilingan XII asrda ham kuzatiladi. Misol uchun, ayni davrda yaratilgan mavzuga oid asosiy manbalar bo'lmish «Vita et Commemoratio librorum» («Hayot va kitoblarni xotilash») va «Philosophia Magistri Danielis de Merlac» («Ustoz Morlilik Danielning falsafasi»)da Kremonalik Jeradning haftada uch kun lotin o'quvchilariga arab tilidan dars o'tganligi [18: 89v; 21: 223r] qayd etilgan.

- Arab tilidagi asarlarni o'rganish va ular asosidagi ilmiy tadqiqotlar olib borish boshlanganligi:

XI asr ikkinchi yarmi – XIII asrda faoliyat yuritgan tarjimonlar arab tilidagi asarlarni nafaqat lotin tiliga o'girishgan, balki ular asosida o'zlarining shaxsiy asarlarini ham yaratishgan. Jumladan, Batlik Adelard va Sevilyalik Xuanning Muhammad Xorazmiy asarlari asosidagi «Liber Ysagogarum Alchorismi» [4] («al-Xorazmiyning kirish kitobi») va «Liber Algorismi de practica arismetica» [14] («al-Xorazmiyning arifmetika amaliyoti to'g'risidagi kitobi»), Maykl Skotning Ahmad Farg'oniy va Abu Mash'ar Balxiy asarlariga tayangan holda tayyorlangan «Liber introductorius» [19] («Kirish kitobi») kabi asarlarini misol qilib keltirish mumkin. Tahlillar bu kabi asarlarning umumiy soni 40 dan ortiq ekanligini ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, manbalar bu davrda arab tilidagi asarlar asosida ilmiy tadqiqotlar ham yo'lga qo'yilganligidan dalolat bermoqda. Misol uchun, Alfonso X (1252–1284) davrida Toledo maktabi olimlari tomonidan, Muhammad Xorazmiyning «Zij»i asosida yangi zij tuzilgan. Ma'lumot o'rnida aytib o'tish o'rinliki, «Zij al-Xorazmiy» 1126-yilda Batlik Adelard [1], 1138–1151-yillar o'raligida esa Dalmatlik Herman tomonidan ikki marotaba lotin tiliga tarjima qilingan edi.

«Zij al-Xorazmiy» asosida Toledo maktabida tuzilgan zij bevosita qirol Alfonso X tashabbusi bilan yaratilganligi bois, fanda «Tablas alfonsies» [20] («Alfonso jadvallari») deb yuritiladi. Mazkur zij Toledo maktabining o'sha davrdagi ish yurituvchi rahbarlari Yahud ibn Moshe va Ishoq ibn Sid boshchiligida 1252–1265 yillarda olib borilgan izlanishlar natijasi bo'lib, astronom olimlar uni yaratishda «Zij al-Xorazmiy»ning Adelard va Herman tarjimalari hamda toledolik mashhur astronom az-Zarqaliyning Kremonalik Jerard lotincha o'g'irgan «az-Zij at-Tulaytila» nomli asaridan [3] foydalanishgan. Qayd etish joizki, aslida az-Zarqaliy «Zij»i ham Xorazmiy jadvallari asosida yaratilgan edi.

Alfonso X al-Xorazmiy hamda az-Zarqaliy «Zij»laridagi dalillarni nazariy va amaliy jihatdan tekshirib ko'rish maqsadida 20 dan ortiq astronomdan iborat ikki guruhni tashkil etadi. Uning tarkibida Sevilyadan taklif qilingan Aben Ragel, Aben Misio, Muhammad ismli olimlar, shuningdek, Qurtobadan kelgan Iosif Aben Ali, Yakob Abenvena kabi astronomlar, bundan tashqari, Parij va Gaskoniya maxsus taklif qilingan 15 nafar olim bo'lgan. Bu guruhlardan birinchisiga Yahud ibn Moshe, ikkinchisiga esa Ishoq ibn Sid rahbarlik qilgan. Qirol topshirig'iga binoan birinchi guruh al-Xorazmiy asarini, ikkinchi guruh esa az-Zarqaliy risolasini maxsus tekshiruvdan o'tkazadi. Jarayonda, Ishoq ibn Sid boshchiligidagi astronomlar «Zij al-Xorazmiy»ni Adelard va Herman tomonidan lotinchaga to'g'ri o'girilganligiga ishonch hosil qilish maqsadida, tarjimalarni o'zaro solishtirib ham ko'rishadi. Jarayonda, Dalmatlik Herman asarni qo'shimcha izohlar bilan tarjima qilganligiga guvoh bo'linadi. Biroq, bu tarjima hozirga qadar yetib kelmagan.

Alohida qayd etish joizki, xorazmlik allomaning astronomiyaga oid ilmiy nazariyalarini Yevropa bo'ylab keng tarqalishida Toledo maktabida yaratilgan mazkur «Zij» asosiy vositalardan biri bo'lib xizmat qildi. Avval kastil tilida bitilib, 1321-yilda lotin tiliga «Tablas alfonsies» nomi bilan o'girilgan asar to XVI asrga qadar G'arb astronomiyasida o'zining muhim ahamiyatini saqlab qoladi. Asarning lotincha qo'lyozmasi [20] bugungi kunda Ispaniya milliy kutubxonasida saqlanmoqda.

Mazkur ma'lumotlar ko'rib o'tilayotgan davrda arab tilidagi asarlar faqat nazariy jihatdan tarjima etilibgina qolmay, amaliy tadqiqotlar asosida tahlil etilganligini ham anglatadi. Tadqiqot jarayonida aniqlangan XI asr ikkinchi yarmi – XIII asrda ijod qilgan 71 nafar tarjimonning aksariyati ana shunday olimlar bo'lib, ular o'z davrining arabshunoslari edi.

Yuqoridagi jihatlarni inobatga olib, sanab otilgan 13 ta shaharni umumiy bir nom bilan **«O'rta asr arabshunoslik tarjima markazlari»** deb atash har jihat to'g'ri, deb hisoblaymiz. Ushbu tushunchani ilmiy muomalaga kiritilishi bilan Ispaniya, Italiya va janubiy Fransiya shaharlarida yo'lga qo'yilgan tarjimachilik ishlarini **yagona tizim** sifatida ifodalash mumkin bo'ladi. Ularning geografik joylashuviga asosan 3 guruhga ajratib, *o'rta asr Ispaniya arabshunoslik tarjima markazlari* – Barselona, Mursiya, Pamplona, Saragosa, Sevilya, Segoviya, Toledo; *o'rta asr Italiya arabshunoslik tarjima markazlari* – Neapol, Paduya, Palermo, Salerno; *o'rta asr janubiy Fransiya arabshunoslik tarjima markazlari* – Marsel va Monpelye sifatida tasniflash maqsadga muvofiq.

II. «O'rta asr arabshunoslik tarjima markazlari» faoliyat xronologiyasini qayta belgilash.

Biz, sohadagi tadqiqotlarimizning dastlabki natijalariga asosan «O'rta asr Yevropa tarjima markazlari»ning shakllanish bosqichini XII asr bilan belgilash lozim [47: 41], degan fikrni ilgari surgan edik. Ayni xulosaga Toledo arxiyepiskopi Raymondo de Salveta (1125–1151)ning 1125–1126-yillarda Toledoda Yevropaning turli nuqtalariga kelgan tarjimonlar guruhini tashkil etib, arab tilidagi astronomiya, matematika va ilohiyotga oid asarlarni lotin tiliga o'girish ishini yo'lga qo'yganligi asos bo'lgan.

Lotin tilli manbalar tahlili, arab tilidagi asarlarni lotin tiliga tarjima qilish Ispaniya hududidan avvalroq, Italiyaning Salerno shahrida yuz berganligini ko'rsatmoqda. Jumladan, o'rta asrlarning eng yirik tib va tarjima markazi hisoblangan Salerno maktabi tarixiga oid birlamchi manba bo'lmish «Chronica monasterii Casinensis» («Kassino monastirligi yilnomasi») nomli asarda (Bavariya davlat kutubxonasi 2H.Mom.131 raqami qo'lyozma) 1077-yilda Ifriqiyalik Konstantinni (1010–1087) Salernoga kelgani va o'zining bosh homiysi Apuliya gersogi Robert Otvil (1059–1085) tashabbusi bilan arab tilidagi bir qancha asarlarni lotin tiliga o'giranligi qayd etilgan. Qiyosiy tahlil natijalari mazkur tarjimalar Hunayn ibn Ishoqning «Madhal ila kitob Jolinus» («Jolinus asariga kirish»), Hunayn ibn Imronning «Maqola fi-l-molikhuliya» («Melanxoliya haqida risola»), Ishoq ibn Sulaymonning «Kitob al-adviyah al-mufradah» («Dori vositalari kitobi») va «Kitob al-Istiqot» («Bosh negizlar kitobi»), Abu Bakr ar-Roziyning «Kitob al-hovi fi-t-tib» («Tibbiyotga oid bilimlar majmui»), Ibn Jazzorning «Zod al-musofir va-qut al-hodir» («Sayohatchi va harakatsiz [insonlarning] ovqatlanish qoidalari») nomli asarlaridan iborat ekanligini ko'rsatmoqda. Qolaversa, Konstantin o'zining Salerno maktabidagi faoliyati davomida yana 20 ga yaqin arab tilidagi tibbiy asarlarni lotin tiliga o'giran. Bu asarlarni antik davr olimlari asarlarining arabcha nusxalari hamda musulmon Sharqi allomalarining sohaga doir nodir kitoblari tashkil etgan.

Ifriqiyalik Konstantin yo'lga qo'ygan tarjima faoliyati Salerno tibbiyot maktabini o'rta asrlarning yirik tarjima markazlaridan biriga aylanishida muhim omil bo'lib xizmat qildi. Ayni jihatni o'z asarida I.Fyuk ham [44: 4] e'tirof etgan. Biroq, olim Konstantin tarjimalarini aniq sanamay, ularning matnlarini tahlil etmay turib, bu tarjimalar arab tilini mustaqil o'rganishga turtki bo'la olmaganligi va Islomning haqiqiy mohiyatini tushunishga olib kelmaganligini [44: 4] qayd etadi. Vaholanki, asli ifriqiyalik bo'lgan Konstantin til egasi sifatida asosan sof tibbiyotga oid arabcha asarlarni lotin tiliga o'giran va tarjima jarayonida matnlarning leksik hamda grammatik stilistikasini o'zaro muvofiqligini saqlashga harakat qilgan. Shu sababdan ham uning tarjimalaridan keyingi davrlarda yaratilgan lotincha nusxalardan ko'ra ko'proq foydalanilgan. Bundan tashqari, Konstantin arab tilidagi asarlarni nafaqat lotin tiliga tarjima qilgan, balki ular asosida tibbiyotga oid o'zining lotincha yangi kitoblarini ham yozgan. Bu bilan u o'z davri nuqtai nazaridan arabshunos bajarishi lozim bo'lgan vazifalarni to'liq ado etgan. Misol uchun, uning «De oculis» [6] («Ko'z haqida») va «De melancholia» [9] («Melanxoliya xususida») nomli asarlari Hunayn ibn Ishoq va Hunayn ibn Imronning yuqoridagi kitoblari asosida yozilgan. Tarjimon-olimning arab tilidagi asarlar asosida yaratgan kitoblari qatoriga bugungi kunda Oksfordning Merton kolleji kutubxonasidagi MS. 219 raqamli to'plam tarkibida saqlanayotgan «De stomacho» [5] («Oshqozon to'g'risida»), «De coitu» [7] («Juftlik»), «De medicinis dissolutiuis» [8] («Tibbiy eritmalar to'g'risida») kabi risolalar ham kiradi. XI asrning ikkinchi yarmida Konstantin tomonidan shakllantirilgan tarjima uslublari Salerno, Palermo, Neapol kabi Italiya arabshunoslik tarjima markazlarida faoliyat yuritgan keyingi davr tarjimonlari uchun muhim metodik asosga aylandi.

TARIX

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda o'rta asr arabshunoslik tarjima markazlarini shakllanishining boshlang'ich nuqtasini XI asr ikkinchi yarmi bilan qayta belgilash o'rinlidir.

III. O'rta asr arabshunos tarjimonlari va ularning klassifikatsiyasi.

Qayd etish lozimki, ko'rib o'tilayotgan davrda faoliyat yuritgan tarjimonlar o'zagini mintaqaning turli hududlaridan bo'lgan har xil e'tiqod va elat vakillari tashkil etgan. Biz, sohadagi tadqiqotlarimiz doirasida tarjima tarixiga oid manbalar hamda ayni davrda yaratilgan tarjimalar qo'lyozmalarining tahlili natijasida XI asr ikkinchi yarmi – XIII asrlarda faoliyat yuritgan 71 nafar tarjimonni aniqlashga erishdik.

Ularni etnik kelib chiqishi va faoliyat geografiyasi nuqtai-nazaridan quyidagicha tasniflash lozim:

Italiya arabshunoslik tarjima markazlarining vakillari:

arab: Salim ibn Ifriqiy (XIII asr);

barbar: Ifriqiyalik Konstantin (1010–1087);

italyan: Jovanni Plateario (XII asr birinchi yarmi), kichik Jovanni Plateario (XII asr ikkinchi yarmi), Metti Plateario (XII asr ikkinchi yarmi), Pistoialik Akkursius (XII asr), Nikola Deoprepio (XIII asr), Rojer Frugardo (XIII asr), Fedriko Lorana (XIII asr), Rojer Luchero (XIII asr), Antonio Fichchini (XIII asr), Jerard da Salerno (XIII asr), Sabbionetalik Jerard (XIII asr), Jakoma da Venetsiya (XIII asr), Rikardo Bonakosa (XIII asr);

yunon: Genri Aristipp (1105–1162), Euxenio da Palermo (XII asr ikkinchi yarmi);

yahudiy: Avraam da Mursiya (XII asr birinchi yarmi), Yakov Anatoliy (1194–1256), Ishoq da Palermo (XIII asr), Jovanni da Kapuya (1250–1310), Faraj ibn Salim (XIII asr ikkinchi yarmi).

Ispaniya arabshunoslik tarjima markazlarining vakillari:

barbar: Muhammad (XII asr), G'olib (XII asr ikkinchi yarmi), Abdulmalik al-Balansiy (XIII asr birinchi yarmi), al-Marvon ibn al-Hakim (XIII asr birinchi yarmi);

ingliz: Batlik Adelard (tax. 1070–1145), Chesterlik Robert (XII asr), Kettonlik Robert (XII asr), Maykl Skot (1175–1234), Sareshellik Alfred (XII asr ikkinchi yarmi – XIII asr boshlari);

ispan: Sevilyalik Xuan (1090–1150), Santalalik Hugo (XII asr), Domingo Gundisalvi (1110–1190), Ispaniyalik Xuan (1150–1215), Toledolik Marko (XIII asr), Alvaro de Oviyedo (XIII asr ikkinchi yarmi), Ferrando de Toledo (XIII asr ikkinchi yarmi), Garsi Perez (XIII asr ikkinchi yarmi), Xuan de Aspa (XIII asr ikkinchi yarmi), Guillen Arremon (XIII asr ikkinchi yarmi), Pedro Reggio (XIII asr ikkinchi yarmi);

italyan: Dalmatlik Herman (1100–1160), Tivolialik Platon (XII asr), Kremonalik Jerard (1114–1187), Olmoniyalik Herman (XIII asr), Edigio da Parma (XIII asr ikkinchi yarmi), Xuan da Mesina (XIII asr ikkinchi yarmi), Xuan da Kremona (XIII asr ikkinchi yarmi), Siyenalik Bonaventura (XIII asr ikkinchi yarmi);

mosarab: Toledolik Pedro (XII asr), Bernardo al-Arab (XIII asr ikkinchi yarmi);

portugal: Gil Rodrigo de Valadares (1190 – 1265);

fransuz: Puatyelik Pyer (XII asr);

flamand: Bryuggelik Rudolf (XII asr);

yahudiy: Pedro Alfonso (tax. 1062–1140), Avraam bar-Hiya (1065–1136), Ibn Dovud (1110–1180), Yahud ibn Moshe Koen (vaf. tax. 1280), Ishoq ibn Sid (vaf. tax. 1285), Avraam de Toledo (1225–1294), Samuel de Toledo (XIII asr ikkinchi yarmi), Samuel Levi (XIII asr ikkinchi yarmi), Xosse al-Afiyat (XIII asr ikkinchi yarmi).

Janubiy Fransiya arabshunoslik tarjima markazlarining vakillari:

ispan: Arnoldo de Villanova (tax. 1235 – 1313), Bernardo Honofredi (XIII asr);

fransuz: Ermengo Blez (1264–1312);

yahudiy: Yahud ibn Tibbon (1120–1190), Samuel ibn Tibbon (1150–1230), Moshe ibn Tibbon (1195–1274), Yakov ibn Tibbon (1236–1304), Yahud Profatiy (XIII asr).

Ismlari qayd etilgan tarjimonlarning ayrimlari o'z faoliyatlari davomida turli tarjima markazlarida ijod qilishgan. Misol uchun, ulardan Ispaniyadagi Toledo maktabi a'zosi Maykl Skot 1227–1229-yillarda Italiyadagi Palermoda, Italiyaning Neapol universitetida faoliyat yuritgan Yakov Anatoliy esa Fransiyaning Marsel shahrida ham ijod qilgan.

Sanab o'tilgan 71 nafar tarjimonni asarlarning tarjima qilishdagi ishtiroki va faoliyat doirasiga ko'ra yana bir necha guruhlariga ajratish zarur.

Asarlarni yakka tartibda, mustaqil tarjima qiluvchilar:

Italiya tarjimonlari: Ifriqiyalik Konstantin, Jovanni Plateario, Nikola Deoprepio, Rojer Frugardo, Euxenio da Palermo, Pistoialik Akkursius, Genri Aristipp, Sabbionetalik Jerard, Faraj ibn Salim, Yakov Anatoliy, Jakoma da Venetsiya, Rikardo Bonakosa, Jovanni da Kapuya.

Ispaniya tarjimonlari: Pedro Alfonso, Batlik Adelard, Dalmatlik Herman, Chesterlik Robert, Kettonlik Robert, Toledolik Pedro, Sevilyalik Xuan, Sareshellik Alfred, Kremonalik Jerard, Bryuggelik Rudolf, Santalalik Hugo, Maykl Skot, Toledolik Marko, Olmoniyalik Herman, Gil Rodrigo de Valadares, Siyenalik Bonaventura, Ishoq ibn Sid.

Janubiy Fransiya tarjimonlari: Yahud ibn Tibbon, Samuel ibn Tibbon, Moshe ibn Tibbon, Yakov ibn Tibbon, Arnaldo de Villanova, Ermengo Blez.

Asarlarni hammualliflikda tarjima qiluvchilar:

Italiya tarjimonlari: kichik Jovanni Plateario va Metti Plateario.

Ispaniya tarjimonlari: Domingo Gundisalvi va Ibn Dovud, Ispaniyalik Xuan; Tivolalik Platon va Avraam bar-Hiya; Yahud ibn Moshe va Xuan de Aspa, Guillen Arremon, Garsi Perez; Pedro Reggio va Edigio da Parma; Avraam de Toledo va Bernardo al-Arab; Alvaro de Oviyedo va Ferrando de Toledo.

Janubiy Fransiya tarjimonlari: Bernardo Honofredi va Yahud Profatiy.

Asarlarni vositachi tilga tarjima qilishga ko'maklashuvchilar: bu guruhga kiruvchilar arab tilidan lotinchaga tarjima qilinayotgan asarlarini vositachi (kastil, ibroniy yoki yunon) tillarga o'g'irishda ishtirok etishgan. Biroq, ular tarjimalar matnida muallif sifatida ko'rsatilmaydi.

Italiya tarjimonlari: Salim ibn Ifriqiy, Avraam da Mursiya, Ishoq da Palermo, Fedriko Lorana, Rojer Luchero, Antonio Fichchini, Jerard da Salerno.

Ispaniya tarjimonlari: Muhammad, G'olib, Puatyelik Pyer, Abdulmalik al-Balansiy, al-Marvon ibn al-Hakim, Samuel Levi, Samuel de Toledo, Xuan da Mesina, Xuan da Kremona, Xosse al-Afiyat.

Yuqoridagi tasnifga kiritilgan tarjimonlarning barchasi ham musulmon Sharqi allomalari asarlarini tarjima qilish bilan shug'ullanmagan. Ulardan ayrimlari o'z faoliyati davomida asosan antik davr mualliflari qalamiga mansub asarlarni lotin yoki ibroniy tiliga o'g'irish bilan band bo'lishgan.

Sanab o'tilgan tarjimonlar faoliyatining tahlili, ular arab tilidagi asarlarni nafaqat lotin tiliga o'g'irganliklari, balki tarjima qilingan asarlarni tadqiq etib, ayni tarjimalar asosida o'zlarning yangi-yangi asarlarini yaratganliklaridan dalolat bermoqda.

XULOSA

Tadqiqot natijalari masala doirasida quyidagicha xulosa qilishga asos bo'lmoqda:

birinchidan, arabshunoslikning ilk belgilari aslida arab tilidagi asarlarni tarjima qilish va tadqiq etish ko'rinishida Yevropada X asr ikkinchi yarmidan shakllana boshlagan. XI asr ikkinchi yarmi – XIII asrda mintaqada arabshunoslik tarjima markazlarining tashkil topib, 200 dan ortiq turli fan sohalariga taalluqli bo'lgan arabcha asarlar lotin va boshqa mahalliy tillarga tarjima qilingan;

ikkinchidan, fan tarixida yuzaga kelish davri sifatida umum qabul qilingan XVI asrga qadar arabshunoslik quyidagi uch shakllanish bosqichidan o'tgan:

X – XI asr birinchi yarmi – bu davr arabshunoslikning shakllanishida o'ziga xos «proto» bosqich bo'lib, sohaning asosiy tadqiqot obyekti hisoblangan arab tilidagi asarlarni Yevropa hududiga kirib borishi hamda Qurtuba, Toledo va Salerno kabi shaharlarda jamlanishi bilan xarakterlanadi. Pireney yarim oroliga katta miqdordagi arab tilidagi asarlarni kirib borishi va jamlanishida Qurtuba xalifalari Abdurahmon III (929–962) va al-Hakam II (962–976) muhim rol o'ynagan. Ushbu ilmiy merosni yanada boyitish va uni o'z davrining fan yutuqlari bilan to'ldirish ishlariga Toledo amiri al-Ma'mun (1043–1075) boshchilik qildi. Leon va Kastiliya qiroli Alfonso VI (1069–1109) davrida ushbu ilmiy meros namunalari xristian olamiga taqdim etildi. Biz, musulmon Sharqi, shu jumladan, Markaziy Osiyo mutafakkirlari asarlarining Yevropaga tarqalish bosqichlari va geografik yo'nalishlarini aniqlashga bag'ishlangan tadqiqotimiz natijalarini keyingi ishlarimizda batafsil ko'rinishda e'lon qilamiz;

XI asr ikkinchi yarmi – XIII asr – arabshunoslikning ilk bosqichi. Bu bosqichda maqolada bayon etilganidek, Ispaniya, Italiya va janubiy Fransiya hududida arab tilidagi asarlarni lotin va boshqa mahalliy tillarga o'giruvchi, ular asosida ilmiy tadqiqotlar olib borilib, yangi asarlar yaratiluvchi arabshunoslik tarjima markazlari shakllandi. Bu bosqichda, aniq, tabiiy va ijtimoiy fan sohalariga oid asarlar bilan bir qatorda muqaddas islomiy kitoblar va matnlar ham tarjima qilinib, musulmonlar tarixiga oid bir qancha risolalar yozildi. Yana bir jihati, bu kabi tarjimalarning aksari o'sha vaqtlardagi fan va ta'limning nazoratchisi sifatida cherkov tashabbusi bilan amalga oshirildi.

TARIX

Shunga qaramay, ayni davrda yaratilgan tarjimalar mintaqadagi ilm-fanning keyingi rivojida muhim o'ringa ega bo'ldi;

XIV – XV asrlar – tarjimachilikdan ilmiy arabshunoslikka o'tish bosqichi hisoblangan ayni davrda, lotincha tarjimalarni o'rganish asnosida ularning asl arabcha nusxalari mualliflarining hayoti va shaxsiyatini tadqiq etish boshlandi.

Yuqoridagilar o'z navbatida, arabshunoslikning shakllanishini ilk bosqichini xronologik jihatdan XI asr ikkinchi yarmi – XIII asr bilan qayta belgilash, shunga muvofiq ilmiy va o'quv adabiyotlaridagi tegishli ma'lumotlarga tahririy tuzatishlar kiritish zaruratini ham anglatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

Manbalar

Qo'lyozmalar

1. Algoarizmi Mahumed. Ezich elkauresmi. / tr. Adalarddus Bathensis. – MS. Auct. F. 1. 9. || Bodleian Library, Oxford, UK.
2. Averrois C. Commentarium Magnum in Aristotelis De Anima Libros. tr. M.Scotus. – MS. 282 1. fols. 1-46. || Merton College, Oxford, UK.
3. Azarchel. Tabulae astronomicae. / tr. Gerardus Cremonensis. – MS. Savile 22. || Bodleian Library, Oxford, UK.
4. Bathensis A. Liber ysagogarum Alchorismi. – MS. Lyell 52 2. fol. 21r. || Bodleian Library, Oxford, UK.
5. Constantine. De stomacho. – MS. 219: 10. fols. 195v – 207v. || Merton College, Oxford, UK.
6. Constantine. De oculis. – MS. 219: 11. fols. 207v–212. || Merton College, Oxford, UK.
7. Constantine. De coitu. – MS. 219: 12. fols. 212 – 215. || Merton College, Oxford, UK.
8. Constantine. De medicinis dissolutiuis. – MS. 219: 13. fols. 215 – 217. || Merton College, Oxford, UK.
9. Constantine. De Melancholia. – MS. 219: 15. fols. 224–234v. || Merton College, Oxford, UK.
10. Dixit Algorizmi. – Cambridge: Cambridge University Library, li. 6.5.
11. Epistula domini Petri abbatis ad dominum Bernardum Clare Uallis abbatem. – MS. 1162: fols. 3v – 4v. || Bibliothèque de l'Arsenal, Paris, France.
12. Galen. De Virtutibus Cibariorum. /tr. A.Pistoia. – MS. 218 10. fols. 206–9v. || Merton College, Oxford, UK.
13. Glossarium Latino-Arabicum. – Or. 231. || Leiden University Libraries, Leiden, Netherlands.
14. Hispalensis I. Liber algorismi de practica arismetrice. – L 16 202 fols. 50-81v. || Paris, Bibliothèque nationale de France, France.
15. Iudaeus I. Liber februm. / tr. C.Africanus. – Bodl. 355 – Part B. 5. fol. 135v. || Bodleian Library, Oxford, UK.
16. Lex Mahumet pseudoprophete. – MS. 1162: fols. 26r – 138v. || Bibliothèque de l'Arsenal, Paris, France.
17. Malmesburiensis, W. De Gestis regum Anglorum. – Oxford: Bodleian Library, MS. Laud Misc. 729.
18. Merlac D. d. De Naturis Superiorum et Inferiorum. – Arundel MS 377 fols. 88r-103v. || British Library, London, UK.
19. Scotus M. Liber introductorius. – MS. Bodl. 266. || Bodleian Library, Oxford, UK.
20. Tabule Alfonsi // Libro de las tablas alfonsíes. Latín. –fols. 1r – 22v. || Biblioteca Nacional De España, Madrid, España.
21. Vita, Commemoratio librorum. –Lat. 14390 s. xiv, fols 223r-v. || Paris, Bibliothèque nationale de France, France.

Nashrlar

22. Bacon R. Opus Majus. – Vol. I. / Ed. with introduction and analytical table by J.H.Bridges. – Oxford: Oxford University Press, 1900. – 604 p.
23. De Alcala P. Arte para ligeramente saber la lengua arauiga. Vocabulista arauigo en letra castellana. – Granada, 1505. – 642 p.
24. De Phares S. Recueil des plus célèbres astrologues et quelques hommes doctes. – Paris: H.Champion, 1929. – 307 p.
25. Foresti J.F. Supplementum Chronicorum Orbis, ab initio mundi ad annum 1482. – Venetiis: Bernardinus de Benaliis, 1486. – 557 p.
26. Gerbertus. De rationali et ratione uti. – Parigi: Baviera, 1678. – 243 p.
27. Gerbertus. Regule de abaco computi. – Nuremberg: A.Koberger, 1492. – 163 p.
28. Letters of Gerbert, with His Papal Privileges as Sylvester II. / Translated with an introduction by Harriet Pratt Lattin. – New York: Columbia University Press, 1961. – 145 p.
29. Malmesburiensis W. De Gestis regum Anglorum. – Londini: G.Bishop, R.Nuberie & R.Barker Typographij Regii, 1596. – 816 p.
30. Ostuensi L., Diacono P. Chronica sacri monasterii Casinensis. – Paris: Ex officina Ludouici Billaine in Palatio Regio, 1668. – 649 p.
31. Patrologia Latina. – Tomus CXXXIX (139). / Ed. J.P.Migne. – Paris: Apud G. Fratres, 1880. – 1880. – 838 p.
32. Petrus Venerabilis. Summa totius haeresis Saracenorum. / In Peter the Venerable and Islam / Ed by J.A.Kritzeck. – Princeton: Princeton University Press, 1964. – P. 115–293.
33. Postel G. Linguarum duodecim characteribus differentium alphabetum. – Paris: Dionysium Lescuier, 1538. – 172 p.

34. Rada de J.R. Historia de los hechos de España. / Introd., traduc., notas de J.F.Valverde. – Madrid: Alianza editorial, 1989. – 457 p.
35. Rada de J.R. Historia arabum. / Publicaciones de la Universidad de Sevilla: Serie Filosofía y letras. – Sevilla: Salesiana, 1974. – 92 p.
36. Remenses R. Historiarum Quatuor Libri. – Reims: P.Regnier, 1855. 103. – 679 p.
37. Schedel H. Registrum huius operis libri cronicarum cum figuris et imaginibus ab inicio mundi. – Nuremberg: A.Koberger, 1493. – 336 p.

Ilmiy tadqiqotlar

38. Alverny M-T d'. Translations and translators // Renaissance and Renewal in the Twelfth Century. – Oxford: Clarendon Press, 1982. – P. 421–462.
39. Burnett C. A group of Arabic-Latin Translators Working in Northern Spain in the Mid-12th Century // Royal Asiatic Society of Great Britain and Ireland. 1977. – Vol. 1. – P. 62–108.
40. Burnett C. The Coherence of the Arabic-Latin Translation Program in Toledo in the Twelfth Century // Science in Context. 2001. – Vol. 14. – P. 249–288.
41. Burnett C. The Translating Activity in Medieval Spain // The Legacy of Muslim Spain. / Ed. S.K.Jayyusi. – Leiden, 1992. – P. 1036–1058.
42. Dulieu L. La médecine à Montpellier. Tome 1: Le Moyen âge. – Avignon: Presses universelles, 1975. – 416 p.
43. Figeas M., Carpi O. Les affrontements religieux en Europe: Du début du XVIe siècle au milieu du XVIIe siècle. – Paris: Editions Sedes, 2008. – 297 p.
44. Fück J. Die arabischen Studien in Europa bis in den Anfang des 20 Jahrhunderts. – Leipzig: Harrassowitz, 1955. – 335 s.
45. Lawn B. The Salernitan Questions: An Introduction to the History of Medieval and Renaissance Problem Literature. – Oxford: Clarendon Press, 1963. – 240 p.
46. Mahmudov O.V. Sharq allomalari asarlarining Yevropada tarjima etilgan ilk sanasini qayta belgilash to'g'risida (lotin tilli manbalar tahlili asosida). // «Imom Buxoriy saboqlari» ilmiy jurnali. 2022. – № 4. – B. 10-11
47. Mahmudov O.V. «O'rta asr Yevropa tarjima markazlari» tushunchasi va uning ilmiy iste'moliga oid. // «FarDU ilmiy xabarlari» ilmiy jurnali. 2022. – № 5. – B. 36-44
48. Mahmudov O.V. O'rta asr Yevropa tarjima markazlari tarixiga oid arab tilidagi manbalar hamda ularning lotin tilli manbalar bilan qiyosiy tahlili. // «FarDU ilmiy xabarlari» ilmiy jurnali. 2022. – № 6. – B. 47-52.
49. Mahmudov O.V. O'rta asr Yevropa tarjima markazlari tizimida Ispaniya shaharlarining o'rni: Barselona, Pamplona, Saragosa va Segoviya. // «FarDU ilmiy xabarlari» ilmiy jurnali. 2023. – № 1 (1). – B. 353-359.
50. Makhmudov O.V. Studies of scientific works of Muslim East scholars in the translations centers of medieval Europe // International Journal of Early Childhood Special Education. 2022. – Vol. 14 (06). – P. 1142–1151.
51. Makhmudov O.V. The Toledo School – Early Center of Translation in Medieval Europe. // European Researcher. Series A. 2020. – Vol. 11 (3). – P. 150–158.
52. Mazza A. Historiarum epitome de rebus Salernitanis. – Neapoli: Francisci Paci, 1681. – 192 p.
53. Metlitzki D. The Matter of Araby in Medieval England. – London: Yale University Press, 1977. – 360 p.
54. Rzyttka B. Ars magna: Die grosse Kunst d. Raimund Lull. – Mödling: Gabriel-Verl, 1960. – 198 s.
55. Said E. Orientalism. – New York: A Division of Random House, 1978. – 367 p.
56. Santoyo J. La edad media // Historia de la Traducción en España. – Salamanca: Ambos Mundos, 2004. – P. 23–175 (– 873 p.).
57. Toubert P., Bagliani A.P. Federico II e le scienze. – Palermo: Sellerio, 1994. – 189 p.
58. Translation in Europe during the Middle Ages / Ed. by Elisa Borsari. – Berlin: Peter Lang Verlag, 2020. – 316 p.
59. Абдумоев И. Арабшунослик. // Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. – Тошкент: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2000. – Б. 590-592.
60. Габучан Г., Лебедев В.В., Кириллина С.А. Арабистика. // Большая российская энциклопедия. – Москва: Большая российская энциклопедия, 2005. – С.140-141.
61. Махмудов О.В. Европада Марказий Осиё олимлари илмий меросини ўрганишда Толедо мактабининг ўрни. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент: ЎзР ФА ШИ, 2018. – 50 б.
62. Махмудов О.В. Толедо мактаби – афсона ёки ҳақиқат: Ҳ.Ц.Сантайо ва А.Калашниковга раддиялар // Ўтмишга назар. 2021. – № 4 (4). – Б. 38–48.
63. Махмудов О.В. Ўрта аср Европа таржима марказлари тизимида жанубий Франция шаҳарларининг ўрни: Марсель ва Монпелье. // «ЎЗМУ хабарлари». 2022. – № 11/1. – Б. 23-27.
64. Махмудов О.В. Ўрта аср Европа таржима марказлари тизимида Италия шаҳарларининг ўрни: Неаполь ва Падуа. // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. 2022. – № 11/3. – Б. 45-49.
65. Махмудов О.В. Ўрта аср Европа таржима марказлари тизимида Сицилия шаҳарларининг ўрни: Палермо. // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. 2022. – № 12/3. – Б. 60-65.
66. Махмудов О.В. Ўрта аср Европа таржима марказлари тизимида Испания шаҳарларининг ўрни: Севилья ва Мурсия. // «Ўтмишга назар» илмий журнали. 2023. – № 6 (4). – Б. 46-53.
67. Микешина Л. Луллий // Электронная библиотека ИФ РАН. Новая философская энциклопедия: <https://iphlib.ru/library/collection/newphilenc/document/HASHec8843299e41870ce4f8ec>